



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI

O'rolova Barno Shuxrat qizi
Yusupova Sevinch Baxrom qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute,
Pedagogika fakulteti 106-BT-24ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabalari
+998915178719

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17338320>

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyiha asosida ta'lim berish va o'yin texnologiyalarining o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Maqola yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiya, interfaol metod, loyiha asosida ta'lim, AKT, o'yin texnologiyasi, zamonaviy jamiyat, chet davlatlar tajribasi, raqamli ta'lim, ijodkorlik.

Abstract: This article covers the theoretical and practical aspects of using innovative pedagogical technologies in the primary education system. It analyzes the role of interactive methods, information and communication technologies, project-based learning and game technologies in the formation of students' knowledge, skills and competencies. At the end of the article, suggestions and recommendations are given on the formation of primary school students as creative individuals who meet the requirements of modern society.

Keywords: primary education, innovative pedagogical technology, interactive method, project-based education, ICT, game technology, modern society, foreign experience, digital education, creativity.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования инновационных педагогических технологий в системе начального образования. Анализируется роль интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, проектного обучения и игровых технологий в формировании знаний, умений и компетенций учащихся. В заключение статьи даются предложения и рекомендации по формированию учащихся начальной школы как творческих личностей, отвечающих требованиям современного общества.

Ключевые слова: начальное образование, инновационные педагогические технологии, интерактивный метод, проектное обучение, ИКТ, игровые технологии, современное общество, зарубежный опыт, цифровое образование, креативность.

Boshlang'ich ta'lim – umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida Boshlang'ich ta'lim 1—4-sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlanish davri hisoblanadi. U 1—4-sinflarni o'z ichiga oladi va o'qish 6—7 yoshdan boshlanadi. Bunda ta'lim mazmunini belgilash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonunida Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan [1]. Bugungi globallashuv davrida inson

kapitalini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish har bir mamlakatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli bugungi kunda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash alohida ahamiyat kasb etmoqda [2]. "Innovatsiya" tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib, "yangilanish", "o'zgarish", "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. Pedagogik jarayonda innovatsiya – bu o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali, qiziqarli va mazmunli tashkil etishga xizmat qiluvchi metod, vosita va yondashuvlarning majmuidir [3].

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ta'lim tizimiga keng ko'lamda zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Maktab – ta'lim-tarbiya tizimining boshlang'ich bo'g'ini, farzandlarimizning kelajagi, yurtimiz istiqboli ana shu ta'lim sifati bilan chambarchas bog'liqdir" [4]. Demak, boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim saviyasini oshiradi, balki ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda o'quvchi nafaqat bilim olishi, balki uni amaliyotga tatbiq etishi, mustaqil qaror qabul qilishi, jamoada ishlashi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olishi ham muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan innovatsion pedagogik texnologiyalar boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni hayotga tayyorlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaralmoqda [5]. XXI asrda ta'lim jarayoni inson kapitaliga investitsiya sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyatda shaxsning kreativligi, mustaqil fikrlashi, axborotni tezkor tahlil qilish va undan samarali foydalanish qobiliyatlari muhim hisoblanadi. Shu bois innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'limda yangi sifat bosqichiga chiqishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pedagogik texnologiyalar rivojlanish bosqichlari; O'zbekiston va jahon tajribasini o'rgangan holda pedagogik texnologiyalar rivojlanishini uch bosqichga bo'lish mumkin: 1. An'anaviy davr (XX asr boshlarigacha) – ta'lim jarayonida asosan og'zaki bayon va kitob asosida bilim berishga urg'u qaratilgan. O'quvchilar passiv tinglovchi bo'lgan. 2. Pedagogik texnologiyalar shakllanish davri (XX asr o'rtalari – mustaqillik yillarigacha) – ta'lim jarayoniga vizual ko'rgazmalar, texnik vositalar (kinoproektor, radio, televidenie) kirib kelgan. 3. Innovatsion davr (XXI asr) – interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim, masofaviy ta'lim, loyiha asosida o'qitish keng qo'llanilmoqda [6].

O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar; O'zbekistonda 2017-yildan boshlab ta'lim tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi [7]. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 2020-yil) hamda "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi"da ham o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni bilishi va dars jarayonida qo'llashi alohida ta'kidlandi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida:

- interaktiv doskalar, elektron darsliklar;

- internet resurslari va onlayn platformalar (kundalik.com, edu.uz va b.);
- kreativ dars metodlari (rolli o'yinlar, aqliy hujum, loyiha ishlari) keng qo'llanilmoqda.

Innovatsion texnologiyalarning pedagogik-psixologik asoslari; Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh psixologik xususiyatlariga ko'ra: o'yin orqali tezroq o'rganadi; ko'rgazmalilikni yaxshi qabul qiladi; mustaqil ishlash va jamoada hamkorlik qilish orqali bilimni mustahkamlaydi. Shuning uchun innovatsion texnologiyalar psixologik jihatdan ularning ehtiyojlariga mos keladi. Masalan, kompyuter dasturlaridan foydalanish bolalarning vizual idrokini kuchaytirsa, o'yinli metodlar ularning qiziqishini oshiradi.

Interfaol metodlar — bu o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etadigan, ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantiradigan pedagogik yondashuvdir. O'zbekiston maktablarida keng qo'llanilayotgan interfaol metodlarga quyidagilar kiradi:

"Aqliy hujum" – o'quvchilar yangi mavzu yoki muammo yuzasidan o'z fikrlarini tezkor bildirishadi. Bu usul o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi va ijodiy yondashuvini shakllantiradi.

"Klaster" – ma'lum bir tushunchani grafik shaklda tasvirlash, asosiy g'oyalar va ularning bog'liqligini aniqlash. Masalan, "Tabiat boyliklari" mavzusini o'rganishda asosiy tushunchalar atrofida kichik klasterlar chiziladi.

"Venn diagrammasi" – ikki yoki uchta tushunchani qiyoslash orqali ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash. Masalan, "Qish" va "Yoz" fasllarini solishtirishda o'quvchilar tahliliy fikrlashni o'rganadi.

"Sinkveyn" – she'riy shakldagi qisqa yozuv metodidan foydalanib, o'quvchilarda mavzu yuzasidan ijodkorlikni rivojlantirish.

Interfaol metodlar nafaqat bilim beradi, balki o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini — erkin fikrlash, jamoada ishlash, o'z fikrini dalillar bilan asoslash kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'yin metodlari eng samarali usullardan biridir. Chunki bu yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati yetakchi o'rin tutadi. O'yinli darslar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularni darsda faol qatnashishga undaydi. Masalan: "Matematik domino" o'yini orqali sonlarni qo'shish va ayirish ko'nikmalari mustahkamlanadi.

"So'z top" o'yini yordamida ona tili darsida lug'at boyligi kengaytiriladi.

"Rolli o'yinlar" (kichik sahna ko'rinishlari) o'qish darslarida nutq madaniyati va ifodali o'qishni rivojlantiradi.

Pedagogik psixologiyada isbotlanganidek, o'yin texnologiyalari o'quvchilarda bilimlarni 30–40% ga yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi [8]. Raqamli jamiyatda boshlang'ich ta'limda AKT vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Bugungi kunda maktablarda interaktiv doskalar, planshetlar, elektron darsliklar, multimedia dasturlari keng qo'llanilmoqda. Masalan: Ona tili darsida multimedia taqdimotlari yordamida mavzularni ko'rgazmali o'rganish. Matematika darsida interaktiv dasturlar yordamida masalalarni avtomatik tekshirish. O'qish darsida elektron kitoblar yordamida matnlarni audio va video ko'rinishda tinglash. Shuningdek, internet resurslari ham ta'lim jarayonida qo'llanilmoqda. Masalan, "edu.uz" platformasi o'qituvchilar va o'quvchilarga elektron darsliklar, testlar, video darslardan foydalanish imkonini bermoqda. Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning) – o'quvchilarning mustaqil izlanishi, tajriba o'tkazishi va ijodiy ishlashi orqali



bilimlarni o'zlashtirish usulidir. Masalan, "Mening mahallam" mavzusida loyiha tayyorlagan o'quvchilar o'z yashash joyidagi muhim obyektlarni suratga olish, ularni tahlil qilish va sinf oldida taqdim etish orqali geografiya, tarix va ona tilidan bilimlarini mustahkamlashadi. Bu metod o'quvchilarda: jamoada ishlash, mas'uliyatni his qilish, ijodiy yondashuv, natijaga erishish uchun izlanish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi [9]. Yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy talabi hisoblanadi. Chunki: innovatsion texnologiyalar o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qiladi, ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'yin metodlari va interfaol usullar orqali bolalarda o'qishga qiziqish ortadi, bilimlarni mustahkamlash samaradorligi oshadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari darslarni ko'rgazmali, qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Chet davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o'qitish, shaxsiy yondashuv va tarbiyaviy omillar uyg'unligi ta'limning sifatini oshiradi. Demak, innovatsion pedagogik texnologiyalar boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan, bilimli, ijodkor, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishning eng muhim vositasidir.

- Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun innovatsion metodik qo'llanmalar muntazam ravishda ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishi lozim.

- Maktablarda raqamli ta'lim muhitini kengaytirish: interaktiv doskalar, planshetlar, elektron darsliklar bilan ta'minlash.

- O'quvchilarni dars jarayonida loyiha asosida ishlashga, mustaqil izlanishga ko'proq jalb etish.

- O'qituvchilarning malakasini oshirish kurslarida xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitda qo'llashga e'tibor qaratish.

- Ta'lim jarayonida o'yin metodlari va interfaol usullarni keng qo'llash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirish.

- Zamonaviy jamiyat talabidan kelib chiqib, boshlang'ich ta'limda raqamli savodxonlik, ekologik ta'lim, ijtimoiy ko'nikmalar kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor berish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, Yo'ldosh. „Boshlang'ich ta'lim“ Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Ziyomuhamedov B., To'raqulov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Jalolov J. Pedagogik innovatsiyalar asoslari. – Toshkent, 2019
4. Sh.M. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari. – Toshkent, 2021.
5. Xoliqov A. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy metodlar. – Toshkent, 2022.
6. Ziyomuhamedov B., Xoliqov A. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni – “2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”.
8. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Noshir, 2018



9. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – California: The Autodesk Foundation, 2000.
10. Ahmedov, A. "boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning psixologik-pedagogik asoslari". xalq ta'limi jurnali, 2022. – №3. – b. 34-41.
11. Ahmedov, A. (2023). boshlang 'ich sinf matematika darslarida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning nazariy ahamiyati. in library, 4(4), 119-127.
12. Ahmedov, A. (2025). boshlang'ich ta'lim matematika darslarida geometrik tushunchalarni o'qitishda sun'iy intellekt ilovalaridan foydalanish. tadbirkorlik va pedagogika , 4 (1), 249-255.